

# O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

№ 1 (66334)  
2002 yil 4 yanvar, juma

Sotuvda erkin narxda



Nega ot taqasini ostonalarga, eshik tepasiga qoqishadi? Nechun qariyalimiz duo qilishganda «buroq ot»ni eslashadi? «Alpomish»dagi Boychiborni-chi bilasizmi?


Ha, irim va udumlar bejiz emas. Aytishlaricha,

tomonidan hayajon bilan qarshi olindi. «Qarisi bor uying parisi bor» yoki «Qari bilganni pari bilmas» degan naql hayotdan olingan. Andijon viloyati va boshqa viloyatlarga xizmat yuzasidan ko'p marotaba safarda bo'lganman. Jamoat

## FAYZLI YIL BO'SAG'ASIDA

otning taqasi xonadonga qut-baraka, baxt-sodat, fayz olib kelarkan. Ot yilida tavallud topganlar esa ko'rkam, mag'rur, vafodor, boshqarishga moyil, so'zining ustidan chiqadigan bo'larkan...

Agar otning va muchalning xususiyatlarini sanayveradigan bo'lsak, gapimiz cho'zilib ketadi. Keling, indolloga o'taylik. Prezidentimiz tomonidan e'lon qilingan «Qariyalarni qadrlash yili» diyorumiz ahli



transportlariga chiqqanimda ro'mol yopingan buvijonlari andijon do'ppi otaxonlarni ko'rib bahri dilim ochilib ketadi. Hikmatga to'la dilso'zlar, nur yog'ilib turgan yuzlar, ma'noli ko'zlar, duoga ochiq qo'llar...

Darhaqiqat, qalbimiz qo'ridan joy olgan otaxon va onaxonlarimizga yanada mehrliroq, oqibatliroq bo'lishga mas'ulmiz.

Muharrama PIRMATOVA.



## PREZIDENT SOVG'ASI - SOVG'ALARNING ENG ZO'R'I

Uyimizdagi archaning tagi sovg'alarga to'lib ketdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bir quloch sovg'alarni «Shohruh» kafesidan keltirdim. U yerga men Toshkent tumanidagi «Sabzavot» mahalla qo'mitasi taklifiga binoan bordim. Kechani rosa ajoyib tashkillashibdi. Tumandagi nogiron bolalar va kam ta'minlangan oila farzandlarini bir yerga jam qilishib, Qorbobo va Qorqiz boshchiligidagi teatrlashtirilgan ko'rinishlar, qiziq hangomalar namoyish etishdi. Quyuq dasturxonni aytmayisizmi. Barcha noz-ne'matlar muhayyo.

Bolalarga homiylar tomonidan hadyalar topshirildi. U ham mayliku-ya, Prezidentimiz tabrigi o'qilganda, Yurtboshimizning sovg'asi topshirilganda hamma bolalar hayajonlanishdi. Quvonchimiz ichimizga sig'masdi. Ajoyib sovg'a uchun baralla rahmat aytdik. Uyimizga oshiqib sovg'alarni opa-ukalarimiz bilan baham ko'rgimiz keldi.

Ixtiyor MAHSUDOVI,  
Sobir Rahimov tumanidagi  
100-maxsus maktab internatining  
6-sinf o'quvchisi.

## MAKTABIMIZ QACHON ISITDI?

Toshkent tumanidagi G'.Abdullayev nomli 22-o'rta umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Barcha o'qituvchilar o'z bilim va malakalarini yoshlarga berishda tinmay mehnat qiladilar. Bu jamoaga malakali fizik Lutfulla Qosimov rahbarlik qiladilar. Ular o'z jamoalarining jonkuyaridirlar. Bu maktab jamoasi juda ahil. Maktabimizda bayram tadbirlariga alohida tayyorgarlik ko'riladi. Har bir kecha katta tantanalarga aylanib ketadi. Navoiyxonlik deysizmi, fizika, matematika, ximiya haftaligi deysizmi. Hammasi o'quvchilarga bir olam taassurot beradi. Yangi yil bayrami arafasida maktabimiz o'yinchog'u zarlarga to'lib ketdi. Qorbobo va Qorqizlarning tashrifi barchani shod etdi.

Biroq maktab jamoasini o'ylantiradigan bir muammo mavjud. U ham bo'lsa maktabning yetarlicha isimasligi. Xonalarning harorat darajasi sovuq. Bu esa o'quvchilarga biroz qiyinchilik tug'diryapti.

Isitish sohasidagi mutasaddi rahbarlardan iltimos qilardimki, bizning sevimli ilm dargohimiz - jonajon maktabimizni isitishda yordam bersangiz.

Nafisa ABDUKARIMOVA,  
Toshkent tumani G'.Abdullayev nomli  
22- o'rta maktabning 9- sinf o'quvchisi.

## YANGI YIL TILAKLARIM

Oilamizning boshi,  
Siz uyimiz quyoshi,  
Farzandlarning yo'ldoshi,  
Dadajonim, sog' bo'ling,  
Baxtu iqbolga to'ling.

Tunni bedor o'tkazgan,  
Chamandan gul tutqazgan,  
Beshigimiz tebratgan,  
Onajonim, sog' bo'ling,  
Uzoq umrlar ko'ring.

Kompyuter ishqibozi,  
Jaranglaydi ovozi,  
Baland bo'lsin parvozi,  
Ukajonim, sog' bo'ling,  
Ulg'ayib, kuchga to'ling.

Nilufar  
BERDIQULOVA,  
Andijon viloyati, Buloqboshi  
tumanidagi  
10 - ixtisoslashtirilgan  
maktab internat  
o'quvchisi.

## TATILDA OLIMPIADAGA

Bizning maktab-internatda o'quv tarbiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ustozlarimizdan adabiyot fani o'qituvchisi Samandarov, tarix fani o'qituvchisi Rustamov, ingliz tili o'qituvchisi Omonovalar o'zlarining halol mehnatlari va bilimlari bilan maktab jamoasi va o'quvchilar hurmatiga sazovor bo'lmoqdalar.

Ingliz tili bo'yicha Buxoro Davlat universitetining kafedra mudiri M. Sulaymonov biz bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib bormoqda. Men hozir ta'vil davomida bo'ladigan viloyat o'quvchilari olimpiadasida ingliz tili fani bo'yicha ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rmoqdaman.

Baxtiyor SODIQOV,  
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi  
11- ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar  
maktab-internatining  
10- «B» sinf o'quvchisi.

## TAHRIRTALAB SHE'R

Sizga ilk da'fa yo'llanayotgan she'rlarni havaskor shoir bitgan. Albatta, shakl va mazmun jihatidan qusurlar bo'lishi tabiiy. Tahrir qalami bilan muruvvat ko'rsatib, ba'zilarini e'lon qilsangiz, deb Nurboy SAMANDAROV, 1-toifali til va adabiyot o'qituvchisi.

O'qib turib «Xamsa»ni,  
Ko'rib Majnun xastani.  
Farhodi barvastani,  
Navoiyni esladim.

Outqarib dashti Qirvon,  
Iskandar surdi davron.  
Bugun ham nomi omon,  
Navoiyni esladim.



Najmiddin  
RO'ZIYEV,  
Buxoro viloyati,  
Romitan tumanidagi  
11-ixtisoslashtirilgan  
bolalar maktab-internati  
o'quvchisi.

## ENDI MENGA MAZZA

Nega deysizmi? Chunki o'zimning gazetam bo'ladi. Men ham mustaqil o'z nashrimga obuna bo'ldim. Har gal dadamlar pochta qutisidan o'zlarining gazeta va jurnallarini olganlarida mening ularga havasim kelardi. «Menga gazeta keladimi?», deb uydagilarni holi jonlariga qo'ymas edim. Yangi yildan boshlab «Tong yulduzi» meni so'roqlab kela boshlaydi. Uning sahifalarida berilayotgan maqola-yu she'rlarni, hikoya-yu ertaklarni o'qish bilan birga testlarni, boshqotirmalarni yechaman, topishmoqlarni topaman. Sakkizinchi sahifa uchun chizgan suratlarimni yuboraman. Mening gazetam mening hamrohim bo'ladi.

"Tong yulduzi"ga



Shohruh TO'LAGANOV,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumani  
16- maktabning  
3- sinf o'quvchisi.

BILAG'ON BOLALAR  
DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.

## XATLAR TEGIRMONI

«ZAKOVAT»  
VA DADAM

Menga ko'proq «Mening onam» mavzuidagi maqolalar juda yoqadi. Biroq an'anani buzgan holda onam emas, aksincha otam haqida fikr yuritmoqchiman. Sababi, oilaning ustuni, tayanchi, suyangan tog'i bu - otalardir. Dadam O'zTVning «Yoshlar telekanali»da «Zakovat» ko'rsatuvining boshlovchisilar. Ko'pchilik muxlislar «Nega boshlovchi ko'rsatuvda ko'rinmaydi?» deb so'rashadi. Bunga o'zim ham qiziqib sababini so'radim. Shunda dadam «Boshlovchi ko'rsatuvda ko'rinishi shart emas, qizig'i ko'rsatuv muxlislarga manzur bo'lishidir. Albatta qatnashuvchi ham e'tibordan qolishi kerak emas. Chunki muxlislar diqqatida ko'rsatuvning jiddiyligi muhimdir», deydi. Hozirda «Zakovat» ko'rsatuviga elga manzur bo'lib kelmoqda. O'yinchilarning hammasi muxlislar e'tiborida. Muxlislarning ko'pligini «Zakovat» ko'rsatuviga kelayotgan maktublardan anglash mumkin. Uyg'a dadam, lof emas, qolab xatlar olib keladilar. Ayrim paytlarda ko'rsatuv uchun saralab tonggacha maktublarni o'qib chiqadilar. Ba'zida esa xatlarni oilaviy muhokama qilamiz.

Kelajakda men ham jurnalist bo'lishni, shunday ajoyib ko'rsatuvlar tayyorlashni orzu qilaman. Bu yo'lda menga dadam - yo'lchi yulduzdirlar.

Shodiya ABDULLAYEVA,  
Toshkent shahar  
Yunusobod tumanidagi  
274-maktabning  
10- «A» sinf o'quvchisi.

KITOB  
BILIM MANBAI


Kitob insonning beminnat, hamfikir va sirdosh do'stidir. U insonni ezgulikka yetaklaydi, aqlni charxlaydi. Bizlarning teran fikrga ega bo'lishimizda kitobning ahamiyati beqiyos. Bilim manbai sanalgan kitobni insonlar zarrin nurlarini ayamay sochib, hayotni oydin va charog'on etayotgan saxiy quyoshga o'xshatishadi. Bu bejiz emas. Zero, saxiy quyosh hayotni nurga to'ldirsa, kitob inson qalbini nurga to'ldirib, uni ravshan qiladi. Biz kitoblarni ko'proq mutolaa qilib, uning zarrin nurlaridan bahramand bo'lsak, bu zarrin nurlar nafaqat qalbimizni, balki kelajak yo'limizni ham yoritadi va bilim bulog'idan ichgan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Hayotda qanday inson bo'lishimiz esa aynan kichik va sodda tuzilgan, ammo olam-olam ma'noga ega olamning siru sinoatlarini o'zida mujassam etgan kitoblarga bog'liq.

Sohiba SAFAROVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
60- ixtisoslashtirilgan maktabning  
8- sinf o'quvchisi.

## FALAK

Nopok ish qilsa ba'zi odamlar,  
Egri bo'lib ketar qadamlar.  
To'g'rilikdan chekingan damlar,  
Falakdan qarq'ish yog'ilar.

Albatta insonning yaxshilari bor,  
Gunoh etsa boshin egar, qilar or.  
Ularga hamisha ezgulikdir yor,  
Falakdan alarga olqish yog'ilar.



Mashhurbek ADAMOV,  
Xorazm viloyati,  
Shovot tumanidagi  
42-maktabning  
7-sinf o'quvchisi.

## O'YINCHOQSIZ QOLGAN ARCHA



Mana «Yangi yil» ham kirib keldi. Bu bayramni hamma xursandchilik bilan kutib oldi. «Yangi yil» bayramida ko'p qiziqarli voqealar bo'lib turadi. Shulardan biri bizning uyimizda ham bo'lgan. U paytda men bog'cha bolasi edim.

Bir kuni «Yangi yil» bayramiga oyijonim archa

bezatganlar. Yangi yil kechasi kuni akam va men archa atrofida qo'l ushlab aylanmoqchi bo'lib, chiroyli bezatilgan archani ag'darib yuborganmiz. Archadagi o'yinchoqlarning barchasi chil-chil singan. Akam va men qo'rqib ketganimizdan shkafning ichiga berkinib olganmiz. Oyijonim archani turg'izib, archaning tagini tozalaganlar. Archani bezatishga esa hech qanday o'yinchoq qolmagan edi.

Shundan keyin har yili «Yangi yil» kechasida mana shu voqeani eslab kulishamiz.

Yulduz ABDURAHMONOVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 126-  
maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

«Bugungi yoshlar bundan o'n-o'n besh yil avvalgi yoshlardan keskin farq qiladi», - degan jumlaning ko'p bora eshitganmiz. Ushbu farq ularning ayni

## KOMILLIKKA ELTUVCHI YO'L

«Prezident asarlari bilimdoni» ko'rik-tanlovidir.

Ushbu ko'rik-tanlovdan ko'zlangan maqsad haqida so'z yuritilar ekan, bir narsani alohida ta'kidlash joiz. Bugungi yoshlarning jamiyatimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarning mohiyatini chuqur anglab yetishlari, jumladan,

jamiyati asoslaridan boxabar bo'lishni ham talab etmoqda. Ushbu masalalar yuzasidan yetarli darajada tushuncha beruvchi asosiy qo'llanmalar esa Prezidentimiz Islom Karimovning ilmiy asarlaridir. Aynan shu bois ham ushbu ko'rik-tanlov o'quvchilar o'rtasida katta

qiziqish uyg'otgan bo'lsa ajab emas.

Ikki kun davom etgan respublika bosqichida ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida muvaffaqiyat qozongan 14 o'quvchi g'oliblik uchun bahs olib bordilar. Aslida «g'oliblik» so'zini nisbiy deya qabul qilsak ham xato bo'lmasdi, zero respublika bosqichida ishtirok etishning o'ziyoq ular uchun

**Kamolot hududi**  
o'tgani ham diqqatga sazovor bo'ldi. Unga bayramona ruh bag'ishlashda



kundagi faoliyatlarida tobora aniqroq ko'zga tashlanmoqda. Bilimi, dunyoqarashi va fikrlash tarzining o'zgarishi yoshlarimizning o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun katta imkoniyatga ega bo'lganlari bilan bog'liq desak, mutlaqo yanglishmagan bo'lamiz.

Darhaqiqat, sobiq ittifoq davrida o'rta maktab o'quvchilari o'z bilimlarini faqat fan bo'yicha o'tkaziluvchi olimpiada bahslarida namoyish etish imkoniga ega edilar. Buni o'sha davr o'quvchilari bo'lgan kishilar juda yaxshi eslasalar kerak. Hozirgi kunda esa fan olimpiadalari bilan bir qatorda turli ko'rik-tanlovlar ham o'tkazilmoqdaki, ular umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalariga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Ana shunday ezgu ishlardan biri «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilib, yaqinda nihoyasiga yetgan



yoshlar oldiga qo'yayotgan vazifalardan ogoh bo'lishlari kelajaklari uchun o'z qo'llari bilan qo'yilgan poydevordir. Zero, yurtning ertangi kuni kuchli intellektual salohiyat egalarining qo'lida ekanligi bugungi yoshlar uchun sir emas.

Intellektual salohiyat deganda o'z kasbining sir-asrorlarini mukammal egallashgina tushunilsa, u tor ma'noda talqin etilgan bo'ladi. Zero, davr bugungi yoshlardan nafaqat o'z sohasining sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirishni, balki jamiyat qonuniyatlari, taraqqiyot tamoyillari, bozor iqtisodiyoti tushunchasining mohiyati va fuqarolik



ulkan yutuq edi.

Ko'rik-tanlovning o'ta rasmiy tusda emas, balki yoshlarga xos jo'shqinlik bilan

Respublika yosh o'quvchilar markazining yosh xonandalari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

O'quvchilarning tanlov shartlariga berayotgan javoblarida aks etib turgan dadillik, hozirjavoblik, Prezident gaplarining mohiyatini anglashga bo'lgan intilish va ishonch hissiga guvoh bo'lgan har qanday kishi yurtimizning munosib egalari yetishib chiqayotganiga imon keltirishi muqarrar edi.

Ko'rik-tanlov nihoyasida barcha ishtirokchilarga komillikka eltuvchi ilm yo'lga qo'ygan qadamlari bundanda yuksak marralarga yetishini tilab, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengash va Xalq ta'limi vazirligining faxriy yorliqlari topshirildi.

**Ma'ruf TOSHPOLATOV,**  
«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengash kotibi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi bolalar tashkiloti a'zosi, maktab sardori Sanjar G'ofurov poytaxtimizdagi Vohid Zohidov nomli 146-maktabning 1- «A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Matematika fanini yaxshi ko'radi. Hisob-kitob amallari, misol va masala yechish jonu dili. Bo'sh vaqtda kompyuterni, ingliz, rus tilini, rasm chizishni o'rganadi. Taekvandoga qatnaydi. Sariq belbog' sohibi. 40 marta tortina oladi, shpagat o'tirib, uzoq



## OZ-OZDAN O'RGANIB, OLIM BO'LAMAN



masofalarga yuguradi. Ustozi Sherzod akadan doimo o'rnak olishga harakat qiladi.

Sanjar yaqinda bo'lib o'tgan «Alifbe bayrami» taassurotlarini biz bilan o'rtoqlashdi.



o'tdi. Kechamizga tashrif buyurgan mehmonlar maktab rahbari Rahima Saidhosilova, ilmiy mudirlar Zurriyot Ahmedova, Naima Nasimjonova, Dilbar Nosirovalar tadbirimizga yuqori baho berishdi.



Orzuim - oz-ozdan o'rganib, kelajakda olim bo'lish va Vatanimga xizmat qilish.

**Mahliyo MIRSOATOVA**  
yozib oldi.

-Bayramimiz katta tantanalarga aylanib ketdi. Ayniqsa, Yangi yil bayramiga ulangani, qorbobo bilan qorqizning tashrifi, sovg'asalomning ulashilgani hali beri yodimdan chiqmasa kerak. Men «O» harfi bo'ldim. Yana ko'plab she'rlar aytdim, sahna ko'rinishlari, kuy-qo'shiqlar ijro etdim. Ustozimiz Xurshida opa Murodxo'jayeva talablariga javoban bayram juda chiroyli



Maktab sahnasi uchun

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

**14-bola:**

Kel kelaman, kul-kulaman,  
So'zlardagi «K» bo'laman.  
Meni ko'rib tanimasang,  
Bilmasvoy deb xo'p kulaman.

**15-bola:**

Lochin, Lobar, Latif, lofchi,  
Latta-lutta, lampa, lola.  
So'zlariga razm solib,  
Meni top-chi, bilgin bola.

**16-bola:**

Meni hamma «M» deyishar,  
Mollar «mu» deb o't yeyishar.  
Mana meni bilib olding,  
Ancha bilgir bo'lib qolding.

**17-bola:**

«N»ga, menga solib nigoh,  
So'zlarimdan bo'ling ogoh.  
Nasihatim, ishlat aql,  
Ko'proq o'qi, tingla naql.

**18-bola:**

Bilib olib har kun oz-oz,  
Odam, odil so'zlarin yoz.  
«O» harfiman meni tanib,  
Ota-onang ayla e'zoz.

**19-bola:**

Paysal, paykal, paypoq,  
Po'choq, pishiq, puxta.  
Patir, pichoq, parta,  
Paxta, so'zlarida,  
Bosh harf bo'lib keldim har choq.

**20-bola:**

Qo'ldosh qaysar qo'ydi qopqon,  
Ko'rib qochdi qo'rqqoq quyon.  
Gapidagi har bir so'zda,  
Keldim «Q» man bo'lma hayron.

**21-bola:**

Rahim menga razm solda,  
«R» ligimni eslab qolda.  
Harflar ichra adashmasdan,  
Darhol meni topib olda.

**22-bola:**

Barcha meni «S» harfi der,  
Sen hammaga saloming ber.  
Meni yoyib o'rganibsan,  
Rahmat deyman to'kibsan ter.

**23-bola:**

Tarqalmadi tongda tuman,  
Gapidagi uchta «T» dan.  
Meni topib topolmasang,  
So'z o'qishdan to'xtataman.

**24-bola:**

Uloq, ulov, unum, uzum,  
So'zlardagi «U» man o'zim.  
Ustozingdan o'rgan doim,  
Shudir senga aytar so'zim.

**25-bola:**

Endi mendan «V» dan so'zla,  
Harflar ichra meni izla.  
Bosh harfiman «Vatan» so'zin,  
Bilmas mensiz Vatan so'zin.

**26-bola:**

Xayol, xirmon, xanjar, xitob,  
Kabilarda men borman, top.  
Alifboni farzandiman,  
Yashash jam asli kitob.

**27-bola:**

Meni barcha «Y» deyishar,  
Ovqatni ham yedirishar.  
Dangasalar ishdan qochib,  
Qosh-qovog'in uyishar.

**28-bola:**

«Z» harfiman eslab qolgin,  
Harflar ichra tanib olgin.  
Gap ketsa gar menga gar,  
Eslanadi Zamon, Zoir.

**29-bola:**

Alifbodir mening o'lkam,  
Harflar esa akam-ukam.  
«O'» harfiman aniqlagansan,  
Tanishuvdan xursand men ham.

**30-bola**

G'arch-g'urch, g'adir-g'udur,

javob bera olasizlarmi?

**Baravariga:** Ha.**Amir Temur:**

- Siz kimlarning naslisiz?

**Baravariga:**

- Biz Temurning naslimiz.

**Amir Temur:**

- Siz kimlarning farzandisiz?

**Baravariga:**

- Biz O'zbekning farzandimiz.

**Amir Temur:**

- Ona yurtinigiz qayer?

**Baravariga:**

- Mustaqil O'zbekiston.

**Amir Temur:**

- Mustaqillik ne demak?

**Baravariga:**

- Ozodlik va istiqloq.

**Amir Temur:**

- Sevgan joyinigiz qayer?

**Baravariga:**

- Maktab jonajonimiz.

**Amir Temur:**

- Sevgan kishingiz kimdir?

**Baravariga:**

- Ona mehribonimiz.

**Amir Temur:**

- Rahmat bolalarim. Javobdan juda xursandman.

**Boshlovchi:**

- Bolalar, Alifbe kitobingiz ham siz bilan xayrlashmoqchi:

**Alifbe:**

- Rahmat bolalar, men sizdan xursandman. Men sizlarga sihat-salomatlik tilayman.

**Baravariga:**

- Rahmat senga Alifbe, rahmat senga Alifbe!

**1-bola:**

To'rt oy oldin biz maktabga kelgan edik,  
O'qish, yozish, nimaligin bilmas edik,  
Sen o'qitib savodimizni chiqarding,  
Nega endi bizni tashlab ketasan sen?

**2-bola:**

Alifbeni tugatdik  
Yana biz dovon oshdik,  
Bizga berdingiz ta'lim  
Rahmat, sizga muallim.

**3-bola:**

Sizlar uchun ko'p qiziq,  
Alifbo tuzgan edik.  
Harflar suratini chizib,  
Bir safda tizgan edik.

**4-bola:**

Birdan fil o'yinqaroq,  
Har yoqqa qochib ketdi.  
O'zi otib shataloq,  
Qaygadir qochib ketdi.

**5-bola:**

Endi harflar har yonda,  
Qolishdi-ku adashib.  
Go'yo qalin o'rmonda,  
Yo'l topolmas bosh qashib.

**6-bola:**



«A» - qayda-yu «B» qayda?  
Qayerda «J» ning joyi?  
«T» qoldimi to'qayda,  
Qaniykin «O'» ning joyi?


**Baravariga:**

Alifboni shoshmasdan,  
Bilib olgin bekami-ko'st.  
Shunda harflar qochmasdan,  
Bo'lar sizga o'rtoq do'st.

(Tamom)

Xurshida MURODXO'JAYEVA,  
Toshkent shahar, S. Rahimov  
tumanidagi 146-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.





Ko'zguga boqqanda men kelajagi porloq o'z husn egasini ko'rmoqdaman. Uning ko'zlarida quvonch, lablarida tabassum ila kelajak sir-asrorlarini o'rganishni ko'ngliga tugib qo'ygan bir qizni, g'unchani endigina ochilayotgan gulga taqqoslayman. Chunki bu gul hali hayotning qanchalik og'irligini, kelajakda hali qanchadan-qancha ajoyibu g'aroyib narsalar borligini bilmaydi. Gul esa nozik nihol demakdir.

**Shahnoza OYDINOVA.**

*Aziz «Tong yulduzi» muxlislari!*

*Men Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining 10- «G» sinf o'quvchilariga «Ko'zguga boqqanda nima ko'rasiz?» degan savol bilan murojaat qildim, ular esa e'tiboringizdagi javoblarni hech ham qiynalmay qaytarishdi. Ularni siz ham o'qib ko'ring.*




## KO'ZGUGA BOQQANDA NIMANI KO'RASIZ?




Men ko'zguda tashqi olamni ro'yi-rost ko'rsatib berayotgan ekranni ko'rdim.

**Lutfiya SUYAROVA.**




Ko'zguga boqib... O'zi ochgan orzu so'qmoqlarini turli begona o'tlar bosishiga yo'l qo'ymayotgan, bilim cho'qqisini zabt etishga intilayotgan, maqsad nishonini ko'ksiga jo qilgan, ilm ummonining sayoz joyida, ummonning eng botig'ini ko'zlayotgan yigitni ko'raman.

**Kamoliddin ILHOMOV.**




Ko'zguda yuzi oppoq qorday jilovlanib turgan, sochlari xuddi maysadek bahorning yoqimli shabadasida raqs tushayotgan, ko'zlari esa xursandchilikdan qisilgan husnni ko'rmoqdaman.

**Umida ABDULLAYEVA.**



Yana ko'p joylar... Keng daraning narida Bor edi bir botqoqlik. Botqoqqa yaqin kelgan Bir zumda g'oyib bo'lar Manzara oddiy emas, Tog'li, ko'lli, yaylovli.

**Hojiakbar CHOTBOYEV.**



Ko'zguga boqib ko'zimga tikilaman. Chunki o'z ko'zim, ko'zguda qalbmning yolg'on va rost kechinmalarini ro'yi-rost ko'rsatadi. Unda yana hayot qiyinchiliklari-yu xursandchiliklariga hamisha tayyor, mushkulotni esa osonlik bilan yengib o'tadigan bir xushro'y qomatni ko'raman.

**To'liqin BERDALIYEV.**



Bor edi bir cho'qqida, Sariq bargli o'rmonzor. Bu o'rmonzor yonida, Qurib qolgan ikki ko'l. Sariq bargli o'rmonda, Na hayvon, na qushlar bor. Qurib ketgan ko'lda ham Biror zot yo'q, yaydoq cho'l.

**Sardor KARIMOV.**




Bir kun soch tarayin deb, Men ko'zguga qaradim. Ko'zguda ko'rinardi, Bir ajib manzaralar. Bir baland tog', ikki g'or, Burun ekan men bildim. Yonida ikki qo'l bor, Suvi sof bular - ko'zlar.

**Alisher ABDUPATTAYEV.**

Insonlarning tashqi olami va ichki olamini o'z ko'zgidan namoyon qilib turuvchi aksda, inson atalmish mavjudotning tashqi olami namoyon bo'ladi.

**Sitora HALIMOVA.**



Men ko'zgu deb atalmish manzarada, ichki olamni, tashqi olam berkitayotgan husnni va bu husn inson ekanligini ko'rmoqdaman.


**Marg'uba NAZAROVA.**

Aziz bolajonlar! Dunyodagi barcha bolalar singari sizlar ham ertaklarni juda yaxshi ko'rsangiz kerak? Ertaklarning sehrli olami sizning murg'ak qalbingizni hayajonga solib, xayolotingizni bepoyon mo'jizalar, siru sinoatlar makoniga yetaklaydi. Siz u yerda o'zingizni shu ertakning qahramoniday his qilasiz. Ertak voqealarining bevosita ishtirokchisiga aylanasiz.

Dastlabki o'qigan ertaklaringizdagi «Quloqvoy», «No'xatvoy», «Boshmaldoq», «Handalak polvon», «Xurmacha polvon», «Zumrad va Qimmat» kabi mitti qahramonlar bilan oshno tutinsangiz, — keyinchalik «Pahlavon Rustam», «Oilich botir», «Malikai Husnobod», «To'lg'onoy» kabi ertak qahramonlariga havas qila boshlaysiz. Ertakdan ertakka sizning bilim va tasavvuringiz boyib boradi. Siz tom ma'noda ulg'aya borasiz.

Sizni qo'lingizdan yetaklab ertaklar olamiga olib kirgan ertakchi bobolaringizdan biri haqida bugun

sizlarga hikoya qilib bermoqchimiz. Filologiya fanlari doktori, professor Komiljon bobongiz O'zbekiston Fanlar akademiyasi-ning Alisher Navoiy



institutida folklor bo'limiga boshchilik qiladilar, shu bilan birga yurtimizning turli viloyatlarida yashovchi kishilar tilidan yozib olingan minglab ertaklarni bir-biriga solishtirib, saralab, to'kis va barkamol nusxalarini sizlar uchun nashrga tayyorlaydilar. Ularning sa'y-

harakatlari bilan nashr etilib, sizning e'tiboringizga havola qilingan «Qora na'matak», «O'zbek xalq ertaklari», «Oltin beshik», «Zumrad va Qimmat», «Sehrli shamchiroq», «Dev qiz», «Sichqon qiz», «Kenja botir» kabi

xalq maqollari», «O'zbek folklori ocherklari», «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi» kabi kitoblarni yozishda ham ishtirok etganlar. Mana tabarruk yetmish yoshga kiribdilarku hamon ilmiy faoliyatlarini davom

ismda ota-onaning o'z farzandidan nimalarni kutganligi o'z ifodasini topadi. O'z zamonasining mashhur bastakori bo'lgan Imomjon Ikromov ertakchi bobongizga mukammal bilim va salohiyatga erishsin deya Komil ismini qo'ygan ekanlar. Ko'rib

## ERTAKCHI BOBONGIZ

nomidagi Til va adabiyot

kitablaridagi ertaklar sizga yod bo'lib ketgan bo'lsa kerak. Sizlar uchun ertaklar, rivoyat va afsonalarni nashrga tayyorlashdan tashqari, «O'zbek

ettirmoqdalar. Bugungi kunda ularning qator-qator shogirdlari bor. Ular o'z shogirdlariga o'zbek xalqining og'zaki badiiy ijodini to'plash,

turganingizday, folklorshunos olim Komiljon Imomov o'z ismiga yarasha ota-onasi orzu qilganiday inson bo'lib yetishdi.

*O'zbek folklorshunosligi taraqqiyotiga samarali hissa qo'shib kelayotgan izlanuvchan olim, filologiya fanlari doktori, professor Komiljon Imomov 1930 yilning 10 yanvarida Toshkent shahrida san'atkor oilasida tavallud topgan. «O'zbek xalq satirik ertaklari» mavzusida nomzodlik, «O'zbek xalq nasri tarixi va janrlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan. Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasi Til va adabiyot institutida yetakchi ilmiy xodim, Folklor bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Biz tahririyat nomidan hurmatli ustozni tavallud kuni bilan chin dildan qutlaymiz. Ularga uzoq umr, sihat-salomatlik, zahmatli mehnatlariga rivoj tilaymiz.*

TAHRIRIYAT

ijihatdan o'rganish va bu noyob xazinani chinakam vorislari bo'lgan bugungi va kelgusi avlodlarga yetkazish yo'lida saboq bermoqdalar.

Har bir inson farzand ko'rar ekan, o'z jigargo'shasiga yaxshi niyat bilan ism qo'yadi. Bu

Aziz bolajonlar! Ota-onangiz, Xalqingiz, Yurtboshingiz mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi deya sizlarga umid ko'zlarini tikib turibdi. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» degan iboraning mag'zini chaqing! Komil bobongizday sohibi fan, sohibi hunarlikni kasb eting. Ertakchi bobongiz taqdim etgan ertak qahramonlariday ziyrak, shijoatli, vatanparvar va xalqparvar bo'lib yetishing!

Munavvara YOQUBBEKOVA, folklorshunos.

Tabiat insonlarga hamisha o'z sahovati bilan yordam qo'lini cho'zgan. Shunga bir misol, insonlar muchal yilini, ya'ni, kalendarini yaratishda tabiatga murojaat qilishgan.

Muchal kalendar qadimgi Sharq mamlakatlarida

**MUCHAL YIL HISOBI**

eramizdan ikki ming yil muqaddam yaratilgan. Mahmud Qoshg'ariyning o'zbekcha muchal tarixiga doir rivoyati ancha qiziqarlidir. Turklar o'n ikki xil hayvon nomini o'n ikki yilga qo'yganlar.

Buning kelib chiqishi bunday: turk hoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan va urush bo'lib o'tgan vaqtini aniqlashgan. Bu masala yuzasidan hoqon qavmi bilan kelishib, bunday degan: «Biz bu tarixni aniqlashda qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach, biz, endi o'n ikki oy va osmondagi o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga ot qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo'lib qolsin».

Muchal kalendar 22 martdan boshlanadi. Yanvar, fevral va 21 martgacha bo'lgan davr oldingi muchal yili hisobiga kiradi. Odam yoshini muchal yili bilan hisoblaganda

hisobga yana bir yil qo'shiladi.

Odam yoshi ona qornidaligidan boshlab hisoblanadi.

O'n ikki yillik muchal kalendar quyidagi tartibda hisoblanadi: birinchi yil - sichqon (mush); ikkinchi yil - sigir (baqar); uchinchi yil - yo'lbars (palang); to'rtinchi yil - quyon (xargo'sh); beshinchi yil - baliq (nahang); oltinchi yil - ilon (mor); yettinchi yil - ot (asp); sakkizinchi yil - qo'y (go'sfand); to'qqizinchi yil - maymun (hamduna); o'ninchi yil - tovuq (murg'); o'n birinchi yil - it (sak); o'n ikkinchi yil - to'ng'iz (ho'k).

**Muchal yil oylari.** Osmondagi o'n ikki yulduz turkumi: Birinchi oy - hamal, ikkinchi oy - savr, uchinchi oy - javzo, to'rtinchi oy - saraton, beshinchi oy - asad, oltinchi oy - sunbula, yettinchi oy - mezon, sakkizinchi oy - aqrab, to'qqizinchi oy - qavs, o'ninchi oy - jaddi, o'n birinchi oy - dalv, o'n ikkinchi oy - hut.

Ali KO'CHIYEV

a b c d e f g h i j k l m n o p q r s t u v w x y z

**ALIFBENI ENDI MEN..**

Shu kunlarda respublikamiz maktablarida yangi yilga bag'ishlangan tantanalar, shu bilan bir qatorda bolajonlarimizning sevimli «Alifbe bayrami» bo'lib o'tmoqda. Yaqinda Toshkent shahar S. Rahimov tumanidagi 46- o'rta maktabda ham ana xuddi shunday go'zal bir tadbir bo'lib o'tdi. Bunda 1- «B» sinf o'quvchilari o'z mahoratlarini namoyon etishdi. Ularning sevimli sinf rahbarlari Mavluda opa Shorahimova «Alifbe bayrami»ni zo'r ishtiyoq bilan tayyorlaganligi bolalarning har bir harf, she'r va qo'shiqlarni burro-burro talaffuz etishlaridan yaqqol ko'rinib turibdi. Bayramning O'zbekistonimizning madhiyasi bilan boshlashlari hammaga o'zgacha bir zavq bag'ishladi. O'quvchilar Vatan, ona, ustozlar, bolalik, tabiat haqida she'r va qo'shiqlar aytishdi. Shu bilan birga ingliz tilida o'rganganlarini ham namoyon etishdi.

Bayramga tashrif buyurgan mehmonlar, o'quvchilarning otonalari bolalarning qisqa fursat ichida shunchalik darajada bilim egallaganliklarini ko'rib juda xursand bo'lishdi. Bayram yakunida bolajonlarni maktab rahbari Ma'mura opa Yormuhamedova va boshlang'ich sinflar ilmiy bo'lim mudiri Halima opa Mashupina so'zga chiqib, ularni tabriklab, o'zlarining samimiy tilaklarini bildirishdi. So'zlarini quyidagicha yakunlashdi: «Mustaqil Respublikamizning ravnaqiga hamda gullab yashnashiga o'z hissangizni qo'shasiz deb biz ham umid qilamiz, aziz bolajonlar!»

Nargiza ABDULLAYEVA.

**JAHON SPORINGA OLIB  
INGLIZ TILIDAN  
TEST SAVOLLARI**

1. Which national team was the first champion by football?

- A. Brazil
- B. Italy
- C. Uruguay
- D. France

2. What is the name of a famous boxer of 60s and 70s? His daughter is also boxer, her name is Leila Ali.

- A. Joe Freiser
- B. John Foreman
- C. Mike Tyson
- D. Cassius Clay

3. What is the name of an olympic champion in Sydney?

- A. Ruslan Chagaev
- B. Mohamedqadir Abdullaev
- C. Rustam Saidov
- D. Aziz Tolaganov

4. What is the name of a famous tennis player from Yugoslavia (former)?

- A. Shteffi Graf
- B. Martina Hinges
- C. Monica Selesh
- D. Anna Kurnikova

Gazetamizning aziz va muhtaram o'quvchilari! Sizni kirib kelgan yangi 2002 yil bilan chin qalbdan tabriklaymiz.

Ushbu yilda barcha ishlaringizda, xususan, maktab, litsey, kollejlardagi o'qishlaringizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Abituriyentlarga esa o'zlari xohlagan institut va universitetlarning baxtli talabasi bo'lish sharafiga muayassar bo'lishlarini chin dildan tilab qolamiz.

Buning uchun esa ular albatta barcha fanlardan puxta tayyorgarlik ko'rishlari, xususan, birinchi navbatda barcha oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida bo'ladigan ingliz tilidan test sinovlariga yaxshilab tayyorgarlik ko'rishlari, shuningdek, ona tili va adabiyot, tarix fanlarini ham yaxshi bilishlari lozim bo'ladi.

5. What is the name of a football player who was the owner of Golden Ball in 2001?

- A. Michael Owen
- B. Ronaldo
- C. Rivaldo
- D. David Beckham

6. Who was the owner of a honour of being best player of FIFA in 2001?

- A. Zidan
- B. Raul
- C. Luis Figo
- D. Ryan Giggs

7. What is the name of a famous boxer from Britain who won in the match against Holyfield, Michael Grant, Hassim Rahman?

- A. Mike Tyson
- B. Lennox Lewis
- C. Zab Judah
- D. Golota

8. Dennis Rodman is .....

- A. tennis player

Dear readers of our newspaper "Tong Yulduzi"! We sincerely congratulate all of you with new year 2002. During this year we wish you to enter any institute that you want and we wish you all the best in your studies. For such a success all students and pupils must study very hard on all subjects only for best marks.

And such a hard studying will cause the best success.

The main keys and things are the following: You must not give up, no matter what happens, you have to study more and work hard on it.

Especially, if you want to enter any institute, you must learn English, native language and literature, history very well.

Therefore, don't waste your time, study and practice more and more every day.

Happy new year dear readers!

- B. boxer
- C. basketball player
- D. baseball player

9. Michael Owen is a forward of England and .....

- A. Liverpool
- B. Arsenal
- C. Aston Villa
- D. Blackburn

10. Bergkamp is a forward of .....

- A. Mexico
- B. Holland
- C. France

**TESTS  
IN ENGLISH  
ABOUT WORLD  
SPORT**

11. Tiery Henry is a forward of .....

- A. Monaco
- B. Nantes
- C. Arsenal
- D. Liverpool

12. Loran Blanc is a defender of France and .....

- A. Manchester
- B. Lester
- C. Newcastle
- D. Tottenham

13. Lizarazu is a defender of .....

- A. Bayer
- B. Bavaria Munchen
- C. Verder
- D. Borussia

14. Oliver Kahn is a goalkeeper of .....

- A. France
- B. Germany
- C. Italy
- D. Spain

15. Barthez is a goalkeeper of .....

A. Finland  
B. France  
C. Fiji  
D. England.  
**Shohruh KARIMBEKOV.**

**OYGA PIYODA ...**

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra odam bir kunda 20 ming, bir yilda 7 million, 70 yil davomida esa 500 million qadam yo'l yuradi. Bu shuni ko'rsatadiki, o'rtacha umr ko'rgan kishi yerdan oygacha bo'lgan masofani piyoda bosib o'tadi. Bu - yer sharini ekvator bo'ylab o'n marta aylanib chiqish bilan barobar.

**BUYUK KISHILAR  
SHOHMOT HAQIDA...**

Pablo Neruda: «Shohmotning mohiyati nimada? Bu insonning o'zi ustidan erishgan ilohiy g'alabalaridan biridir. Ba'zilar uchun u - simfoniya, musiqa, boshqalar uchun - tasviriy san'at asari, mening uchun she'riyat, aql-idrok hamda iroda poeziyasidir».

Chingiz Aytmatov: «Shohmotni yaxshi o'ynaydigan odamlarga havasim keladi. Ular taxta uzra ijod qilganlarida chinakamiga iste'dodli rassom, musiqachi, artist darajasiga ko'tariladilar, estetik boyliklar yaratadilar.

Shohmot partiyasini xuddi she'r eshitgandek, ajoyib surat yoki teatr spektaklidek tomosha qilsa bo'ladi».

Lev Tolstoy: «Men hayotimni

Shohmotsiz tasavvur eta olmayman. U ajoyib hordiq manbai, o'yin jarayonida miya, ong o'ziga xos ravishda harakatga keladi».

D. Shostakovich: «Shohmot menga ilhom beradi, yaxshi dam olaman. Ana shuning uchun ham men Shohmotni qadrlayman».


Benjamin Franklin, «Shohmot o'yini shunchaki-bekorchiilikdagi o'yin emas. Bu o'yin aqlning bir qancha eng muhim fazilatlarini tarbiyalaydi va bu fazilatlar shunday mustahkamlanadiki, ular inson hayotida ham yaxshi odat tusiga kirib qoladi».

Gyote: «Shohmot - bu aqlning quyma toshidir».

**MATEMATIK  
JUMBOQ**

Raqamlar oralig'idagi nuqtalar o'rniga shunday to'rt amal alomatlarini yozing-ki, bunda hosil bo'lgan misolning natijasi kelib chiqsin.

Foziljon O'RIPOV.



«Ginnes rekordlar kitobi»da eng yoshi ulug' kishi sifatida qayd etilgan Sara Knauss yana ozroq sabr qilsa o'z hayoti davomidagi uchinchi yuz yillikning ham guvohi bo'lishi mumkin edi. U o'tgan yilning

U Siz bilan biz kabi turli xil hayot «lazzat»laridan ham imkon qadar bahramand bo'lgan. Uning uzoq umr ko'rishiga mustahkam sog'ligidan

**UZOQ UMR KO'RISHNING SARI**

30 dekabr kuni 119 yoshida AQSHning Allentaun shahrida joylashgan qariyalar uyida bandalikni bajo keltirdi.

Missis Knauss sug'urta kompaniyasida ishlagan va hamma singari uy yumushlari bilan mashg'ul bo'lgan.



bo'lak sirlari ham bormidi? Bu savolga marhumaning 96 yoshli qizi Katrin Salliven shunday javob beradi: «onam o'ta og'ir-vazmin fe'lli inson edi, deyarli hech kim uning jahlini chiqaza olmasdi...».


## BIR NAFASDA QANIG'IA?

Tez aytish bugungi kun bolalarining folklor janri hisoblanadi. Ammo qadimgi zamonlarda tez aytish kattalar folkloriga mansub ekanligi haqida taxminlar ham bor. Sababi, tez aytishda bayon etiladigan matn odatda bir nafasda aytilishi kerak. Shuning uchun olimlar tez aytishlarni avvalgi zamonlarda katta odamlar orasida musobaqa bo'lgan deb taxmin qiladilar.

Tez aytishda ko'pincha jarangli undoshlar takrorlanadi. Ba'zi bolalar «sh», «r» undoshlarni ayta olmay «s», «l», «y» shaklida talaffuz qiladilar. Hozirgi paytda tez aytishlardan nutqi zaif bolalarning nutqini shakllantirishda foydalanilyapti. Keling, siz ham o'z nutqingiz va qobiliyatingizni tekshirib ko'ring-chi.

**Bir turp borakan**  
**Bir tut borakan**  
**Tutning tomirini**  
**Turpning tomiri**

**Turtib turibdi**  
**Turpning tomirini**  
**Tutning tomiri**  
**Turtib turibdi.**



Tez aytishlar bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni yo'qotishga qaratilganidan tashqari, yoshlar orasida aql va so'zamollik, chechanlik musobaqasi sifatida o'yin-kulgu, ko'ngil ochish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Adolat FAYZIYEVA.



**Tutning tomirini**  
**Turtib turgan**  
**Turpning tomirini**  
**Tutning tomiri**  
**Turtib turibdi**  
**Turpning tomirini**  
**Turtib turgan**  
**Tutning tomirini**  
**Turpning tomiri**  
**Turtib turibdi.**



## QUTLOV

Tog'u qoyalarda qor,  
Shamol mayin yeladi.  
Qorbobo ham biz tomon,  
Sovg'a olib keladi.

Kumush qishning ko'rkidir,  
Go'zal archa, qorbobo.  
Yangi yil bilan qutlab,  
Omad tilar Dilrabo.

**Dilrabo**  
**DO'STQOBILOVA,**  
**Yakkasaroy tumanidagi**  
**118-maktabning**  
**4-sinf o'quvchisi.**

## TOPISHMOQLAR

Uzaman deb cho'zsang qo'l,  
Gul tikani bermas yo'l.

Devorda emas teshik,  
Meni atashar ...

Uni tinglab olsang dam,  
Kuy, qo'shiq senga hamdam.

Undan jaf otopar dil,  
Uzun bo'lsa agar ...

Insonni u uyg'otadi,  
Qilib so'zsiz itoat.  
Tulki emas,  
Xo'rozlarning dushmani asli.

Jamolimga boqmangiz  
tunlar bedor.  
Hatto mening yuzimda ham  
dog'lar bor.

Sahrodagi tuya ekan juda quv,  
O'rkachlari uzoq kunlar  
berar ...

Jahongir MIRZAALIYEV.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir badavlat odam bo'lib, uning Botirjon degan o'g'li bo'lgan ekan.

Kutilmaganda shu odam og'ir betob bo'lib, olamdan o'tibdi. Marhumni olib qabristonga yo'l olishganda, Botirjon otasining tobutini xizmatkorlarga ko'tartirib, o'zi oldinda keta boshlabdi.

- O'g'lim, otangiz betob bo'lib yotganda ham faqat xizmatkorlar qarashdi. Hech bo'lmasa, tobutini biroz ko'tarishib borsangiz, o'g'illik burchingizni bajargan bo'lasiz, - debdi kekxa chollardan biri.

- Xizmatkorlar otamga qaragan, tobutini ko'tarishgan bo'lsa, men ularning xizmat haqini to'layapman, - deb jerkib beribdi Botirjon.

Yillar o'tibdi. Botirjon ham qarib, o'g'illari katta yigit bo'lishibdi. Bir kuni

u ham og'ir kasallik bilan yotib qolibdi. Qarangki, Botirjonning o'g'illari ham ikki-uch kunda bir marta otalarining oldiga kirib: «Dada, tuzukmisiz? Sizga nima kerak?» - deb so'rasharkan-da, xizmatkorlarga: «otamga yaxshi qaranglar, aytgan narsalarini bajo qilinglar», - deb chiqib ketisharkan. Kekxa ota esa o'g'illari yonida o'tirishlarini, birga ovqatlanib suhbatlashishlarini, og'riyotgan oyoq-qo'llarini uqalab, silab qo'yishlarini istarkan.

Shunda uning yodiga yigitlik payti, otasi qariganda bemehrlilik, beparvolik qilganlari tushibdi. Pushaymon bo'libdi, lekin bu pushaymon foydasiz ekanligini juda kech tushunibdi...

**Feruzaxon ABDULLAYEVA,**  
**Sobir Rahimov tumanidagi**  
**326-xalq amaliy san'at maktabi**  
**majmuasining**  
**6- sinf o'quvchisi.**

**Eniga:** 1.Venesueladagi milliy bog'. 3.Hindistonning Rajastxam shtatidagi shahar. 6.Martaba. 11.O'z faoliyatida biror kimsa maslak, yo'nalishga qarab ish tutish. 12.Ko'ngli yarim qiz. 13.Ingliz faylasufi. 14. ...siramoq, ...lash. 15. Fransiyadagi shahar. 16.Qadimgi Rim mifologiyasida sevgi xudosi. 18.Tropik va subtropik o'simlik. 19. O'zbek urug'i. 21.Bino quriladigan maydon. 22.Farangistonning shimoliy-g'arbidagi tarixiy viloyat. 24.Yig'ilish, davra. 26.Tuyoqli hayvonlarda bo'ladigan yuqumli kasallik. 29.Shashmaqom kuylaridan biri. 33. Oq kristal modda. 34.Ro'zg'or buyumi. 35.Parvarda nomi.


**Bo'yiga:** 1.O'simlik hujayralari pardasini tashkil qiladigan modda. 2.Afrika qit'asidagi davlat. 4.Yaqin qarindosh. 5.Tana a'zosi. 7.Qush turi. 8.«Qora qit'a»dagi davlat. 10.Limon kislotasi. 11.O'ziga og'ir olib ranjimoq. 16.Qo'shma shtatlardagi shahar. 17.Qo'shinga oid, harbiy. 20.Oyning ikkita bir xil fazasi. 23.Handasaviy istiloh. 25.Sipo, sodda. 27.Yovvoyi qoramolning bir turi. 28.Ustki kiyim. 30.Tuzoq.

**Diagonaliga:** 1. Indoneziyaning Sumatra orolida yashovchi xalq. 9.O'n ikki maqom majmuasidagi ma'lum sho'ba nomi. 32.Kabisa. 31.Urg'ochi eshak.

**Tuzuvchi:**

**Sherbek YODGOROV,**  
**Toshkent shahar, Shayxontohur**  
**tumanidagi 84- maktabning**  
**5- sinf o'quvchisi.**

O'TGAN SONDAGI  
BOSHQOTIRMANING JAVOBI:  
Aql er kishiga ming uquvning  
boshi bo'tur.



## TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

**Muassislar:**  
**O'ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT MATBUOT**  
**QO'MITASI,**  
**O'ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASI**  
**XALQ TA'LIMI**  
**VAZIRLIGI,**  
**«KAMOLOT»**  
**YOSHLAR**  
**IJTIMOY**  
**HARAKATI,**  
**«SOG'LOM AVLOD**  
**UCHUN» XAYRIYA**  
**JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 58.519  
nuxxada ofset usulida  
bosildi.

Korxonada manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № F-71  
Gazetani  
Muhabbat  
MAXSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Muharrama  
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilibiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08